


# SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)





*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.*

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar	55 997 117,7 %
Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar	52 122 114,9 %
Yangi tashkil etilgan korxonalar (yanvar-avgustda)	7 946 108,1 %

Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni


(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha  
2022 - yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






# Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2022-yil 1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,4** foizga oshdi





■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar




# Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **3,6** foizga oshdi






## Kichik tadbirkorlik subyektlari

## Mikrofimlar

## Kichik korxonalar



**3,2** foizga oshdi




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


## Oilaviy korxonalar



**6,1** foizga oshdi




**1,8** foizga kamaydi




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **8,1** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **6.2** foizga kamaydi






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1 - sentabr holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari




## Mikrofirmalar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



## Xususiy korxonalar









## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)






Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- sentabr holatiga ko'ra 11 029 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1934 taga yoki 21,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 10 171 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 522 taga yoki 17,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2022- yilning yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1 749 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19,3 % ga kamayganini ko'rish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)








Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra 701 tani tashkil etib, ulardan 687 tasi yoki 98,0 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 51 taga yoki 8,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida 52 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)



# Samarqand viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>Qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
<i>Samarqand viloyati</i>	<b>687</b>	<b>444</b>	<b>243</b>
<i>Afg'oniston</i>	<b>49</b>	<b>19</b>	<b>30</b>
<i>Xitoy Xalq Respublikasi</i>	<b>104</b>	<b>75</b>	<b>29</b>
<i>Eron Islom Respublikasi</i>	<b>38</b>	<b>23</b>	<b>15</b>
<i>Qozog'iston Respublikasi</i>	<b>18</b>	<b>14</b>	<b>4</b>
<i>Janubiy Koreya Respublikasi</i>	<b>47</b>	<b>32</b>	<b>15</b>
<i>Rossiya Federatsiyasi</i>	<b>103</b>	<b>66</b>	<b>37</b>
<i>Tojikiston Respublikasi</i>	<b>16</b>	<b>11</b>	<b>5</b>
<i>Turkiya Respublikasi</i>	<b>116</b>	<b>68</b>	<b>48</b>
<i>Amerika Qo'shma Shtatlari Boshqalar</i>	<b>21</b>	<b>16</b>	<b>5</b>
	<b>175</b>	<b>120</b>	<b>55</b>

Viloyatda 2022-yil 1-sentabr holatiga xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 687 tani tashkil etadi, shundan 444 tasi qo'shma korxonalar, 243 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi. Davlatlar kesimida ko'rib chiqqanda ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 116 ta, shundan 68 tasi qo'shma korxonalar, 48 tasi esa xorijiy korxonalar, Xitoy Xalq Respublikasi 104 ta, shundan 75 tasi qo'shma korxonalar, 29 tasi esa xorijiy korxonalar, Rossiya Federatsiyasi 103 ta, shundan 66 tasi qo'shma korxonalar, 37 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 – sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 – sentabr holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarga nisbatan) Turkiya Respublikasi 16,9 %, Xitoy Xalq Respublikasi 15,1 %, Rossiya Federatsiyasi 15,0 %, Afg'oniston 7,1 %, Janubiy Koreya Respublikasi 6,8 % va Amerika Qo'shma Shtatlari 3,1 % ga to'g'ri kelmoqda.

# Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 – sentabr holatiga ko'ra, birlikda)


14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Samarqand viloyati	687	444	243
Samarqand sh	311	178	133
Kattaqo'rg'on sh	23	19	4
tumanlar:			
Oqdaryo	33	25	8
Bulung'ur	25	12	13
Jomboy	49	36	13
Ishtixon	17	11	6
Kattaqo'rg'on	16	10	6
Qo'shrabot	22	10	12
Narpay	5	3	2
Payariq	18	11	7
Pastdarg'om	34	25	9
Paxtachi	10	6	4
Samarqand	42	31	11
Nurobod	13	12	1
Urgut	55	45	10
Toyloq	14	10	4



# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)





2022- yil 1- sentabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 55 997 ta soniga nisbatan hududlarlagi ulushi, Samarqand shahrida (28,3%), Urgut (8,5%), Pastdarg'om (8,6%), Samarqand (7,4%), Ishtixon (5,4%), Payariq (5,2%), Kattaqo'rg'on (5,1%), Oqdaryo (4,4%), Toyloq (4,3%), Bulung'ur (4,2%), Jomboy (4,0%), Kattaqo'rg'on shahri (3,2%), Narpay (3,2%), Nurobod (3,2%), Paxtachi (2,7%) va Qo'shrabot (2,3%) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar-avgust oylarida, birlikda)

2022- yil yanvar-avgust oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 7 946 ta soniga nisbatan hududlarlagi ulushi, Samarqand shahrida (25,2%), Pastdarg'om (8,8%), Urgut (8,2%), Samarqand (7,5%), Ishtixon (5,9%), Oqdaryo (5,2%), Kattaqo'rg'on (5,3%), Payariq (4,6%), Toyloq (4,8%), Bulung'ur (4,9%), Jomboy (4,3%), Nurobod (3,9%), Narpay (3,1%), Paxtachi (2,9%), Kattaqo'rg'on shahri (3,0%) va Qo'shrabot (2,4%) tumanlari ulushiga tegishli.







2022- yilning yanvar-avgust oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda jami 1 749 korxonalarining viloyatga nisbatan ulushi, Samarqand shahrida (16,7 %), Kattaqo'rg'on (12,0%), Pastdarg'om (10,4%), Payariq (9,9%), Samarqand (7,3%), Bulung'ur (7,3%), Urgut (5,7%), Jomboy (5,3%), Oqdaryo (4,5%), Ishtixon (4,5%), Toyloq (4,8 %), Narpay (3,9 %), Paxtachi (3,6 %), Qo'shrabot (2,1%), Kattaqo'rg'on shahar (1,6 %), va Nurobod (0,4 %) tumanlari ulushga ega.

## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022– yilning yanvar-avgust oylarida, birlikda)



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 - yil 24 - avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.





Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Samarqand viloyati statistika boshqarmasi**

**Statistik registrlarni yuritish  
bo'limi**

**Tel.: 66 235-14-42**